

**TURIZM IQTISODIYOTIDA MICE TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISHIDA MUHIM OMILLAR****Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li**

PhD, Alfraganus Universiteti

**Xolmuradova Shahnoza G'anisher qizi**

Magistrant, Alfraganus Universiteti

**Annotatsiya:** Turizm iqtisodiyotining bir qismini mukammal qilishdagi katta yordamchi sifatida ko'rinadigan va kulturaviy almashtirish vositalari sifatida ham xizmat qiladigan "mice" turizmi dunyoda ommalashtirilayotgan ajoyib yo'nalishlardan biridir. "Mice" turizmi, "Meetings, Incentives, Conferences, and Exhibitions" ning qisqartirilgan usuli bo'lib, korxonalar, tashkilotlar, va davlat tuzilmalari tomonidan tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar, kurashlar, namoyishlar, va festival-larning o'tkazilishi, shuningdek, holda ish ko'rsatish, korxonalar va institutlar tomonidan yangi mahsulotlar va xizmatlar taqdim etish uchun shaxsiy va jamoaviy yig'ilishlarni o'z ichiga oladi.

**Key words:** "Mice" turizmi, korxonalar, tashkilotlar, davlat tuzilmalari, turizm iqtisodiyoti.

**Kirish:** MICE turizm zamonaviy shaharlar va turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarni namoyon qilishning eng istiqbolli usullaridan biri hisoblanadi. MICE turizmning asosiy motivatsion faktorlaridan biri jamiyat va tadbir bo'ladigan joylar uchun rezonansga ega ramziy voqealar hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan tadbirlar tufayli ommaviy axborot vositalarida shahar haqida ma'lumotlar soni ko'paymoqda, mehmonxona sohasi rivojlanmoqda, turoperatorlar qiziqarli yo'nalishlarni yaratmoqdalar [1]. Ushbu ishlar natijasida ijobiy imidj shakllanadi va uning mamlakat ichida hamda chet elda tan olinishi ta'minlanadi. Belgilangan joyga tashrif buyuruvchilar ikkinchi eng muhim auditoriya bo'lib, ularning jalb etilishi hududning ijobiy va muvaffaqiyatli imidjini shakllantirishga ta'sir qiladi. Ularning ehtiyojlari va jalb qilish mumkin bo'lgan jarayonlarni aniqlash hududning moliyaviy markaz sifatida rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi, sanoat va infratuzilmaning rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Ushbu tadqiqotimizda biz maqsadli auditoriyaning turistlar qismini ko'rib chiqamiz. Ushbu auditoriyani tanlash MICE turizmni tashkil etish jarayonida eng katta va ahamiyatli ekanligi bilan bog'liq [2]. Tashkil etilgan tadbir sayyohlarga yoqsa, kelajakda ular takroriy sayohatlarni rejalashtirishadi, hududning mahalliy aholisi va malakali kadrlari, shuningdek, davlatdan tashqarida tashrif buyurgan joyning ijobiy imidjini tarqatuvchisi bo'ladilar. Hozirgi kunda O'zbekistonda Samarqand, Toshkent, Xiva, Buxoro va Qo'qon shaharlarida konferensiyalar mavjud. Bu yerdagi ko'rgazmalar shunchaki tadbir emas, balki tor ixtisoslashgan mutaxassislarining uchrashuvlari, yangi biznes sheriklarni topish, tajriba almashish va shartnomalar tuzish uchun maydondir.

Mice turizmi iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanishi muhim omillarga ega. Bu turdagi turizmning yana biri, ya'ni sport turizmi bilan biznes va ilmiy-hunarmandchilik bo'lgan joylarda muassasalar tuzish uchun mo'ljallangan. Bu esa tijoratni raqobatbardosh va mavqelarni rivojlantirish uchun samarali va keng qamrab olib boruvchi o'zgarishlarni talab qiladi. Mice turizmi mavqelarini rivojlantirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, ijtimoiy sohada kreativ nafas qo'shish va mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarini yanada rivojlantirishda katta ro'l o'ynaydi [3].

Buyuk biznes tashkilotlari, holda korxonalar, banqlar, investitsiya fondlari va sifatli doimiy mijozlar masofaviy ish bilan shug'ullangan bo'lsa-da, ularning samaradorliklari uchun xavfsiz va tajovuzsiz muhit talab etishadi. Mice turizmi shuning uchun butun dunyo bo'ylab yuqori tezlikda rivojlanib borayapti. Bunga ko'ra, biznes va ilmiy-hunarmandchilik tarmoqlari va texnologiya sohaslarida yangi investitsiyalar va innovatsiyalar yo'lga qo'yiladi. Shunday qilib, turizm iqtisodiyotida mice turizmning o'rni va rivojlanishi, har bir mamlakat uchun muhim va o'zgarmas omil sifatida ko'rinadi [4]. Bu esa mamlakatlarda savdo-sotiq munosabatlarni kengaytirish, aholining sifatli turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish va yangi ish o'rinlari yaratishda katta ahamiyatga ega.

Turizmni rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNeSKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim» Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim» deb o'z nutqida aytib o'tilgan. Turizm O'zbekiston iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng asosiy tarmoq sifatida o'z mavqeiga hamda o'rniga egadir.

Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo'lganligi tufayli ko'plab davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e'tibor beradilar. Ular yangi-yangi mehmonxonalarini qurmoqda, eskilarini rekonstruksiya qilib ta'mirlamoqda, ular ham jahon standartlariga moslashtirmoqda. Bunga birgina Samarqand shahrida o'nlab shahsiy mehmonhonalarni misol keltirish mumkin. Ular hech kimning ta'ziqi yoki ko'rsatmasiz o'z tashabbuslari bilan belgilangan ob'ektivdir. Maqsadi shu sohani rivojlantirib katta foyda olish. Bu esa o'z foyda, turizmni rivojlantirish uchun eng muhimdan biridir.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, MICE turizm yaxshi tashkil etilgan va targ'ib qilinadigan tadbirlar shahar, mintaqa va mamlakatning PR-kompaniyasining asosiy elementiga aylanishi mumkin. MICE turizmni tashkil etish sohasida yetakchilar sifatida AQSh, Fransiya, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya tan olingan. Bugungi kunda bir necha o'nlab yo'nalishlarning iqtisodiy faoliyati tadbirlarga qaratilgan. Har yili MICE turizm infratuzilmasi muhim va yillik voqealar maqomiga ega bo'lgan yangi tadbirlar bilan to'ldiriladi. Minglab muxlislar sevimli jamoalari o'yinlarini tomosha qilish uchun dunyo bo'ylab sayohat qilishga tayyor bo'lishadi [5,6]. MICE reytingida qishki va yozgi Olimpiya o'yinlari munosib o'rin egallaydi. Olimpiadani tashkil etish natijasida turizm sohasini rivojlantirish, ular o'tkazilayotgan shahar va mamlakatlarning imij jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi yuzlab loyihalar amalga oshirilmoqda.

**Xulosa:** Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, MICE turizm yaxshi tashkil etilgan va targ'ib qilinadigan tadbirlar shahar, mintaqa va mamlakatning PR-kompaniyasining asosiy elementiga aylanishi mumkin. MICE turizmni tashkil etish sohasida yetakchilar sifatida AQSh, Fransiya,

Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya tan olingan. Bugungi kunda bir necha o'nlab yo'nalishlarning iqtisodiy faoliyati tadbirlarga qaratilgan. Har yili MICE turizm infratuzilmasi muhim va yillik voqealar maqomiga ega bo'lgan yangi tadbirlar bilan to'ldiriladi. Minglab muxlislar sevimli jamoalari o'yinlarini tomosha qilish uchun dunyo bo'ylab sayohat qilishga tayyor bo'lishadi. MICE reytingida qishki va yozgi Olimpiya o'yinlari munosib o'rin egallaydi. Olimpiadani tashkil etish natijasida turizm sohasini rivojlantirish, ular o'tkazilayotgan shahar va mamlakatlarning imij jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi yuzlab loyihalar amalga oshirilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirzayev M.A., Aliyeva MT Turizm asoslari. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011. Fayzieva SH. Razvitiya turizma v Uzbekistan asosiy yo'nalishlari. // Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistan. № 3-4, 2004 yil
2. Алиева, Г. И. Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni / Г. И. Алиева. Текст: непосредственный // Молодой ученый. 2017. -№ 24.1 (158.1). — С. 3-5. — URL: <https://moluch.ru/archive/158/44595/> (дата обращения: 13.08.2022).
3. [tps://moluch.ru/archive/158/44595/](https://moluch.ru/archive/158/44595/) internet sayti.
4. [ddata.worldbank.org](http://data.worldbank.org).
5. [unwto.org](http://unwto.org).
6. [Uzbektourism.uz](http://Uzbektourism.uz).